

## BOYSUN TUMAN SHEVALARIDA KIYIM-KECHAK, QISHLOQ XO‘JALIGIGA OID IZOGLOSSALARNING LINGVISTIK TAHLILI

*Aliyeva Mahinabonu Amirqul qizi*

*TerDU Lingvistika yo‘nalishi 1-kurs magistranti*

*aliyevamahinabonu@gmail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Boysun tumani shevasida qo‘llaniladigan kiyim-kechak va qishloq xo‘jaligiga oid izoglossalar tahlil qilindi. Izoglossalar ro‘yxati shakllantirildi. Hududiy til xususiyatlarining shakllanishi, fonetik va semantik o‘zgarishlar hamda tarixiy-etnografik omillar asosida yuzaga kelgan farqlar qisman ilmiy jihatdan asoslab berildi.

**Kalit so‘zlar:** areal lingvistika, lingvistik geografiya, dialektologiya, sheva, izoglossa, izofon, izomorfi, izoleks, xarita.

Areal lingvistika jahon tilshunosligida paydo bo‘lib, shakllanganiga ancha muddat bo‘lganiga qaramasdan, o‘zbek tilshunosligi sohasida nisbatan yangi paydo bo‘lgan, zamonaviy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Areal lingvistika tilda mavjud qonuniyatlarni hududiy nuqtayi nazardan tahlil qilishga bag‘ishlangan soha bo‘lib, tillararo aloqalarni bir til yoki turli tillar doirasida o‘rganish asosida rivojlantiriladi. Areal lingvistika sheva xususiyatlarining turli hududlarda tarqalishini maxsus belgilar va raqamlar vositasida xaritada aks ettirish bilan shug‘ullanadigan dialektologiyaning bir bo‘limidir, boshqacha aytganda, shevalarga yoki qarindosh tillarga xos bo‘lgan xususiyatlarning tarqalish chegaralarini xaritada ifodalashdir.

Areal lingvistika atamasi italiyalik tilshunos olim Matteo Julio Bartole tomonidan XX asrning 40-yillarida tilshunoslikka kiritilgan. Lekin bu, areal lingvistika bundan oldin mavjud bo‘lmagan degani emas. XX asr boshlarida mashhur bo‘lgan lingvistik geografiya aynan areal lingvistikaning vujudga kelishiga asosdir.

Jahon tilshunosligida areal lingvistikaning muhim masalalari, tasnif va nazariyalarini yaratish bo‘yicha Radlov, Baskakov, Yudaxin, Zarubin, Barovkov, Resheton singari olimlarning, o‘zbek dialektologik va areologik soha rivoji uchun A. Shermatov, A. Jo‘rayev, S. Ashirboyev, Sh. Shoabdurahmonov, A. Madrahimov va boshqalar tomonidan yaratilgan tadqiqotlar juda muhim ahamiyatga ega.

Areal lingvistikaning muammolari:

- muayyan hududda o‘zaro aloqadagi tillar va dialektlarning areal xususiyatlari tavsiflarini amalga oshiradi;
- aloqadagi til va dialektlarning xaritalari va atlaslarini tuzish bilan shug‘ullanadi;
- areal tipologiya tamoyillarini ishlab chiqadi;

- tillar bir-biriga yaqinligi qonuniyatlarini ochadi.

Lingvistik geografiya dialektologik va areologik tadqiqotlarni amalga oshirishning, shevalarni o'rganishning bir metodi hamdir. Areal lingvistika sohasida o'xshash xususiyatlariga ko'ra shevalarning tarqalish chegaralarini aniqlash va umumiy o'xshash, farqli lingvistik xususiyatlarini belgilash asosida shevalarning ma'lum hududda tarqalish xaritalarini tuzish shevalarni tasnif qilish va izoglossalarini shakllantirishda lingvistik geografiya metodi muhim o'rinda turadi. Izoglossa — lotincha izo -teng, glossa- til degan ma'nolarni bildiradi va ma'lum bir til hodisasining (fonetik, leksik yoki grammatik belgi) tarqalish chegarasini ko'rsatadigan shartli chiziqdir. Bir dialekt yoki lahja doirasidagi yoki bir til, qarindosh tillardagi fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarni o'xshashlik darajasiga ko'ra shartli belgilarda turli ranglardan foydalangan holda xaritada belgilab chiqiladi. Izoglossalar qanday lingvistik birlik bilan ifodalanishiga ko'ra 3 turga ajraladi. Izofon – ma'lum sheva va lahjalar uchun umumiylik kasb etuvchi tovushlarning qo'llanilishi. Masalan, qallama – qatlama, sho'rbo – sho'rva, shipirtki – supurgi, gilem – gilam... Izomorf – dialektal leksemalar tarkibidagi morfemalarning o'xshash va umumiy jihatlari asosida tarqalishi. Masalan, qaratqich va tushum kelishigining turlicha variantlarini olish mumkin. Izoleks – bir tushunchani ifodalash uchun har xil hududda qo'llaniluvchi turli shakldagi so'zlar. Masalan, oshisuyuq – keskanosh, oshiko'cha – halim, tunuk – yupqa, nonpalav – bostirma... Izoglossalar mavzuviy jihatdan ham moddiy-maishiy hayot bilan bog'liq, kundalik turmushda qo'llaniladigan predmetlar bilan bog'liq, oziq-ovqat, kiyim-kechak va qishloq xo'jaligi bilan bog'liq guruhlarni o'z ichiga oladi.

O'zbek tilining hududiy variantlari, xususan, janubiy dialektlar tizimida Boysun tumani shevasi alohida o'rin egallaydi. Ushbu sheva qadimgi turkiy til qatlamlarini saqlab qolganligi bilan ajralib turadi. Dialektologiyada izoglossa tushunchasi muayyan til hodisasining geografik tarqalish chegarasini bildiradi va tilning hududiy differensiasiyasini aniqlashda muhim vosita hisoblanadi.

Boysun shevasida ayniqsa maishiy turmushga oid leksika — oziq-ovqat, kiyim-kechak va qishloq xo'jaligi terminlari boy va rang-barangdir. Bu esa hudud aholisi hayot tarzining tilga bevosita ta'sirini ko'rsatadi.

Kiyim-kechak leksikasiga oid izoglossalar. Boysun shevasida kiyim-kechak nomlari ko'pincha adabiy tildan fonetik va leksik jihatdan farq qiladi. Masalan: julob – adabiy tildagi paypoq, shatak – shippak, toqqi – do'ppi, ichik / guppicha – nimcha ustki kiyimlar, kiygich – umumiy bosh kiyim ma'nosida. Bu misollar shuni ko'rsatadiki, Boysun shevasida sinonimik qatlam keng rivojlangan bo'lib, bir tushunchani ifodalash uchun bir nechta variant qo'llanadi. Bu hodisa dialektal boylikning muhim belgisi hisoblanadi. Shuningdek, quyidagi birliklar ham diqqatga sazovordir: choriq – oyoq kiyimi (qadimgi turkiy so'z), jelak, janda, yaktak – ustki kiyim turlari, peshpo, cholvar, lozim – pastki kiyimlar. Bu so'zlarning aksariyati

tarixiy-etnografik ildizlarga ega bo‘lib, xalqning an’anaviy kiyinish madaniyatini aks ettiradi.

Kiyim bezaklari va aksessuarlar izoglossasi. Boysun shevasida kiyim elementlari bilan bog‘liq maxsus terminlar ham mavjud: qur – chopon atrofiga tikiladigan bezak, chiroz – choponning bezak qismi, pocha – lozimning pastki qismi bezagi, paytoba – etik ichidan o‘raladigan mato bo‘lib, asosan cho‘ponlar kiyadi, qishda oyoqlarni issiq tutadi. Bu terminlar kiyimning nafaqat funksional, balki estetik ahamiyatini ham ko‘rsatadi.

Aksessuarlar bilan bog‘liq birliklar: peshonaband – ro‘mol, baldoq – zirak, bozubandak – braslet. Bu so‘zlar milliy madaniyat va bezanish an’analarini yoritadi.

Kiyimning ijtimoiy-funksional tasnifi. Boysun shevasida kiyimlar funksiyasiga ko‘ra ham farqlanadi: jomakori – ish kiyimi, joyravi – ko‘cha kiyimi, shabpo‘shak – kechki kiyim. Bu esa til orqali ijtimoiy hayotning segmentatsiyasi aks etishini ko‘rsatadi.

Qishloq xo‘jaligi leksikasiga oid izoglossalar

Boysun hududi agrar mintaqa bo‘lgani sababli qishloq xo‘jaligiga oid leksika juda rivojlangan. Quyidagi misollar bunga dalildir: yong‘uchqa – beda, gilem – gilam (fonetik o‘zgarish, ya‘ni izofon), norvon – narvon, g‘alvir – katta elak, jo‘ya, pushta – yer tuzilishi bilan bog‘liq terminlar. Bu yerda fonetik o‘zgarishlar (masalan, a → o, i → e) aniq kuzatiladi.

Mehnat qurollari va agrar izoglossalar. Qishloq xo‘jaligiga oid asbob-uskunalar ham izoglossalar orqali ifodalanadi: chalg‘i – katta o‘roq, dost – o‘roq, katman – ketmon, bel – belkurak, panshaxa, shoxa, xaskash – xashak yig‘ish vositasi. Bu terminlar xalqning mehnat faoliyati bilan chambarchas bog‘liq.

Chorvachilik va o‘simlikka oid izoglossalar. Boysun shevasida chorvachilik va dehqonchilik bilan bog‘liq leksika ham o‘ziga xos: buzav – buzoq, inak – sigir, agat – egat.

O‘simlik va mahsulot nomlari: shaptoli – shaftoli, gelos – gilos, zardoli – o‘rik, kadi – qovoq, naxo‘t – no‘xat, lo‘blo – loviya, birinch – guruch, boyimjon – baqlajon. Bu yerda fonetik transformatsiyalar va tarixiy shakllar saqlanib qolgan.

Fonetik va leksik o‘zgarishlarning xususiyatlari. Boysun shevasida quyidagi lingvistik hodisalar kuzatiladi:

Unli almashinuvi:

olma → alma

gilam → gilem

Undosh o‘zgarishi:

buzoq → buzav

Qadimgi shakllarning saqlanishi: choriq, yaktak...Bu xususiyatlar shevaning arxaik qatlamga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Etnolingvistik va tarixiy omillar. Boysun hududi qadimiy madaniyat markazlaridan biri bo‘lib, bu yerda yashovchi aholining turmush tarzi tilga bevosita

ta'sir ko'rsatgan. Kiyim-kechak va qishloq xo'jaligiga oid leksika xalqning kundalik hayoti, ijtimoiy munosabatlari va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Shuningdek, tojik tili ta'siri sababli aksariyat izoglossalarda tojik tili xususiyatlari, "o" lashish hodisasi, to'liq kalka orqali tojik tilidan so'zlarning hech qanday o'zgarishsiz o'zlashganligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, kiyim-kechak va qishloq xo'jaligi bilan bog'liq izoglossalar tilning areal xususiyatlarini ochib beruvchi muhim ilmiy manba bo'lib, ularni tahlil qilish va o'rganish tilshunoslikda yangi yo'nalishlar shakllanishi rivojlanishi uchun zarurdir. Yuqorida keltirilgan misollar shuni ko'rsatadiki, kiyim-kechak va qishloq xo'jaligi bilan bog'liq izoglossalar qisman umumturkiy qatlamga mansub bo'lib, ayrim hollarda hududiy va ijtimoiy omillar ta'sirida o'zgarishga uchragan. Fonetik jihatdan tovush almashinuvi va qisqarish hodisalari, tojik tili ta'sirida "o" lashish va tojik shevasidagi so'zlarni aynan o'zlashtirish keng tarqalgan.

Boysun tumani shevasida kiyim-kechak va qishloq xo'jaligiga oid izoglossalar tilning boy va murakkab tizimini namoyon etadi. Ushbu izoglossalar orqali hududning tarixiy rivoji, madaniy xususiyatlari va xalq turmush tarzini o'rganish mumkin. Mazkur sheva o'zbek tilining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uni chuqur o'rganish umumtil taraqqiyot qonuniyatlarini anglashda muhim ahamiyatga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Reshetov V.V. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 1978.
2. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 1980.
3. Madrahimov A. O'zbek tilining hududiy variantlari. – Toshkent, 2010.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2006.
5. Polivanov E.D. Turkiy tillar dialektologiyasi.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent, 2006.
7. Jo'rayev B. O'zbek xalq shevalari leksikasi. – Toshkent, 2015.